

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc03/30.09.2020.K.82.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**XUDOYBERDIYEVA AZIZA ABDUMAJITOVNA**

**KARBONIL BIRIKMALAR VA GOMOVERATRILAMIN  
ISHTIROKIDAGI UCH KOMPONENTLI REAKSIYALAR ASOSIDA  
YENAMINONLAR SINTEZI**

**02.00.03 – Organik kimyo**

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Chirchiq – 2025**

**Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии  
(PhD) по химическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
Chemical sciences**

**Xudoyberdiyeva Aziza Abdumajitovna**

“Karbonil birikmalar va gomoveratrilamin ishtirokidagi uch komponentli  
reaksiyalar asosida yenaminonlar sintezi” ..... 3

**Худойбердиева Азиза Абдумажитовна**

Синтез енаминонов на основе трехкомпонентных реакций с участием  
карбонильных соединений и гомовератрилами́на ..... 21

**Khudoyberdiyeva Aziza**

Synthesis of enamines based on three-component reactions involving  
carbonyl compounds and homoveratrylamine ..... 39

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 42

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc03/30.09.2020.K.82.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**XUDOYBERDIYEVA AZIZA ABDUMAJITOVNA**

**KARBONIL BIRIKMALAR VA GOMOVERATRILAMIN  
ISHTIROKIDAGI UCH KOMPONENTLI REAKSIYALAR ASOSIDA  
YENAMINONLAR SINTEZI**

**02.00.03 – Organik kimyo**

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Chirchiq – 2025**

**Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/K689 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.cspi.uz.ilmiy-kengash](http://www.cspi.uz.ilmiy-kengash)) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Saidov Abdusalom Shomurodovich**  
kimyo fanlari falsafa doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Abdushukurov Anvar Kabirovich**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Vapoyev Husnitdin Mirzoyevich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika Universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi DSc.03/30.09.2020.K.82.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «30» 04 soat 14<sup>00</sup> da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 111720, Toshkent viloyati Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel.: (+998) 70-716-68-05, faks (0370) 716-68-11; e-mail: tvchdpi\_k.kengash@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (366 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 111720, Toshkent viloyati Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel.: (+998) 70-716-68-05, faks (0370) 716-68-11; e-mail: tvchdpi\_k.kengash@umail.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «17» 04 kuni tarqatildi.

(2025 yil «17» 04 da 24 raqamli reyestr bayonnomasi).

  
**O.E.Ziyadullayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, k.f.d., professor  
**G.Q.Otamuxamedova**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi k.f.d.  
**A.G.Maxsumov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, k.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda dunyoda inson salomatligiga jiddiy xavf tug'diruvchi kasalliklarning kelib chiqishi va rivojlanishi yangi biologik faol birikmalarni izlashni taqozo qilmoqda. Natijada yuqori ehtiyojga ega organik moddalar va materiallar ishlab chiqarish yildan yilga ortib bormoqda, bu esa nozik organik sintez asosida yangi avlod organik moddalar olish, ularning qo'llanish sohasini keng ko'lamda o'rganishni taqozo qilmoqda. Jumladan, yuqori faollikga ega bo'lgan yenaminon hosilalari olishning yangi usullarini topish, fizik-kimyoviy xususiyatlarini tadqiq qilish hamda maqsadli qo'llanish sohaslarini aniqlash dolzarb hisoblanadi. Ayniqsa, yenaminonlardan tibbiyot, farmakologiya, biotexnologiya, neft kimyosi va kimyoviy texnologiya sanoatida yuqori sifatli preparatlar sifatida foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda yangi yenaminon birikmalari asosida sitotoksik faol birikmalarning bir bosqichli sintezi uchun muqobil usullarini aniqlash, jarayonlar borishi va mahsulot unumiga turli omillarning ta'sirini o'rganish, yangi katalitik sistemalarni qo'llash, ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish, ularning fizik-kimyoviy, farmakologik va biologik xossalarini o'rganish, tarkibi va tuzilishini aniqlash bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlar bajarilmoqda. Bu borada, potensial faol geterohalqali birikmalar, xususan, yenaminon hosilalarining turli birikmalar bilan hosil qilgan mahsulotlari tuzilishini aniqlash va istiqbolli moddalarni maqsadli sintez qilish, ular asosida samarali biologik faol preparatlar yaratishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda mahalliy mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantirish yo'nalishida ilmiy izlanishlarni tashkil etish va ichki bozorni sifatli mahsulotlar bilan ta'minlash borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada yenaminon va ularning turli hosilalarini olishning muqobil usullarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish bo'yicha qator tadqiqot olib borilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "milliy iqtisodiyot barqarorligini taminlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmini 1,4 barobarga oshirish"<sup>1</sup>ga yo'naltirilgan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada selektiv katalitik sistemalarda aminlar va karbonil birikmalar asosida olinadigan yenaminon birikmalarini sintez qilish usullarini topish, ularni identifikatsiyalash va ulardan samarali biologik faol moddalarni yaratishga yo'naltirilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar muhim amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yilida amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida", 2018-yil 25-oktabrdagi PQ-3983-son "O'zbekiston Respublikasida kimyo sanoatini rivojlantirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

2018-yil 17-yanvardagi PQ-3479-son “Mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarining talab yuqori bo‘lgan mahsulot va xomashyo turlari bilan barqaror ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari va qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Ushbu tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. Kimyo texnologiyalari va nanotexnologiyalar va VI. Tibbiyot va farmakologiya ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida yenaminonlar sintezi, ularning tuzilishi, xilma-xilligi, kimyoviy xossalari, biologik faolligini o‘rganishga oid izlanishlar jadal olib borilmoqda. Bu borada xorijlik olimlar – R. Kumar, M. Sindrik, S.N. Bangalor, M.M. Ghorab, B. X. Masocha, V. Niphakis, A.Q. Siddiqui, H.K. Drandarov, H.F. Zohdi, S.M. Rateb, C.O. Okoro, J. Rodriguez, Venugopala va boshqalar yenaminonlarning sintezi, reaksiya mexanizmlari va yangi turdagi funksional guruhlar bilan hosil qiladigan birikmalarini chuqur tadqiq etganlar. Bundan tashqari, I.A. Yavari, A. Saleh, F. Janati, M. Daraei, M.A. Zolfigol, F.D. Panah, M. Shiri, H.G. Kruger, M. Mokhlesi kabi yetakchi olimlar guruhi yenaminonlarning turli kimyoviy o‘zgarishlarini, ularning modifikatsiyasi natijasida hosil bo‘ladigan bimolekulyar hosilalarini hamda ularning biologik faolligini o‘rgangan. Ushbu tadqiqotlar yenaminonlarni farmatsevtika, tibbiyot va biotexnologiya sohalarida qo‘llash imkoniyatlarini kengaytirish, dorivor birikmalar sifatida ularning terapevtik samaradorligini oshirish masalalariga qaratilgan

Respublikamizda ushbu soha rivojiga S.Y. Yunusov, H.M. Shohidoyatov, V.I. Vinogradova, M. Alimova, X.A. Bozorov, A.Sh. Saidov, D.B. Tuxtayev va boshqalar o‘z hissalarini qo‘shishgan. Xususan, ular tomonidan amalga oshirilgan geterohalqali birikmalar sintezi hamda ularning biologik faolligini aniqlashga bag‘ishlangan tadqiqotlar yuqori salmoqlidir. Shunday bo‘lsada, yenaminonlar sintezi bo‘yicha tadqiqotlar nisbatan kam o‘rganilgan. Shuning uchun ham yenaminonlar sintezini qiyosiy o‘rganish va olingan mahsulotlar tuzilishini aniqlash, istiqbolli moddalarning maqsadli sintez sharoitlarini maqbullashtirish yangi biologik faol birikmalar yaratish nuqtai nazaridan dolzarbdir.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Geterosiklik birikmalar asosida biologik faol birikmalar sintezi va xossalari tadqiq qilish” ilmiy tadqiqot rejasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** yenaminon hosilalari sintezining maqbul uslublarini takomillashtirish, 1,3-dikarbonil birikmalar, gomoveratrilamin va aromatik aldegidlar asosida yenaminonlarning yangi vakillarini sintez qilish hamda ularning fizik-kimyoviy va biologik xossalari aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:** 5-N-((3,4-dimetoksifenilet)amino)-2,4-dietilefir-1-metil-3-fenil-siklo-geksen-4-ol-1-yenaminon hosilalarini olishning muqobil usullarini takomillashtirish hamda mahsulot turi va unumiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash;

uch va ikki komponentli yenaminonlar olish uchun ko'p komponentli bir reaktorli sintez sharoitlarini maqbullashtirish;

sintez qilingan yenaminonlarning strukturaviy tuzilishlarini IQ, YaMR-spektroskopiyasi, mass-spektrometriya, xromatografiya usullardan foydalangan holda aniqlash;

sintez qilingan yenaminonlarning biologik faolliklarini baholash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida asetosirka efiri, asetilaseton, gomoveratrilamin, aromatik aldegidlar va ularning kondensatsiya reaksiyasi mahsulotlari olingan.

**Tadqiqotning predmetini** karbonil birikmalari, aromatik aldegidlar va ularning bromlangan hosilalarini gomoveratrilamin bilan reaksiyasi natijasida olingan yenaminonlar, yennonlar, iminlar va yenaminlar; shuningdek mahsulotlarning sintez sharoitlarini hamda fizik-kimyoviy va boshqa xossalarini aniqlash tashkil etgan.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishida nozik organik sintez usullari, IQ-,  $^1\text{H}$  va  $^{13}\text{C}$  YaMR-spektroskopiya, ikki o'lchamli COSY, NOESY, HMQC va DEPT usullari, mass-spektrometriya, RTT (rentgen tuzilish tahlili), xromatografiya (yupqa qatlamli (YuQX) va ustunli xromatografiya) hamda biologik tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ilk bor molekulasida turli xil o'rinbosarlar tutgan aromatik aldegidlar, gomoveratrilamin va asetosirka efiri ishtirokida nukleofil siklobirikish reaksiyasi asosida bir qancha reaksiya faol markazlarga ega bo'lgan yenaminon hosilalari sintez qilingan;

asetilaseton ishtirokidagi uchkomponentli reaksiyalar natijasida nafaqat siklik yenaminonlar, balki ikki komponentli yennonlar va iminlarning hosil bo'lishi isbotlangan; yenaminon hosilalarining sintezi uchun reaksiyaning asosiy bosqichlari va mexanizmi taklif etilgan hamda jarayonlarning eng muqobil sharoitlari aniqlangan;

tabiati turli xil aldegidlar molekulasidagi o'rinbosarlarning mahsulot unumiga ta'siri o'rganilgan hamda sintez qilishning samarali usullari takomillashtirilgan, 5-N-((3,4-dimetoksifenilet)amino)-2,4-dietilefir-1-metil-3-fenilsiklogeksen-4-ol-1 yenaminonlar silikagel ustunida xromatografiya usulida tozalanganda yennonlarga parchalanishi aniqlangan;

32 ta birikma sintez qilingan bo'lib ulardan 24 tasi yangi moddalar ekanligi IQ- va YaMR spektroskopiyasi, rentgen tuzilish tahlil usullari yordamida tasdiqlangan, ularning xususiy kattaliklari aniqlangan;

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat: bimolekulyar (izoxinolin-siklogeksanon) birikmalar olish uchun sinton sifatida ishlatilishi mumkin bo'lgan uch komponentli yenaminonlarni sintez qilish usuli takomillashtirilgan;

siklik yenaminonlarni sintez qilish jarayonida hosil bo'lgan mahsulotlarni ajratishning preparativ usuli aniqlangan, ularning tozalash samaradorligi baholangan;

yenaminonlarning sintez qilishning maqbul sharoitlari aniqlangan (gomoveratrilamin : asetosirka efiri : aromatik aldegid = 1:2:1, t=25°C, vaqt 3-7 sutka, unum 56-85%);

5-N-((3,4-dimetoksifeniletel)amino)-2,4-diasetil-1-metil-2-brom-3-oksi-4-metoksifenil-siklogeksen-4-ol-1 va 5-N-((3,4-dimetoksifeniletel)amino)-2,4-diasetil-1-metil-4-oksi-3-bromfenil-siklogeksen-4-ol-1larning sitotoksik faolligi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi zamonaviy IQ-, <sup>1</sup>H va <sup>13</sup>C YaMR-spektroskopiya, mass-spektrometriya, RTT hamda biologik tadqiqot usullari asosida birikmalarning tarkibi va tuzilishi, biologik faolligi aniqlanganligi hamda olingan natijalarning ilmiy nashrlarda e'lon qilinganligi bilan izohlangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Научная значимость результатов исследования заключается в том, что они внесли существенный вклад в разработку методов синтеза енаминонов и расширение понимания механизмов трехкомпонентных реакций карбонильных соединений с аминами. Это послужит основой для дальнейших исследований в области синтеза и модификации гетероциклических соединений, а также позволит лучше понять принципы взаимодействия между карбонильными соединениями и аминами.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, uch komponentli reaksiyalar orqali yenaminonlarni sintez qilishning takomillashtirilgan bir bosqichli usulining takomillashtirilishi yuqori unum bilan 5-((3,4-dimetoksifeniletel)amino)-3-gidroksi-3-metil-1,2,3,4-tetragidro-[1,1'-bifenil]-2,6-dikarboksilat, 5-N-((3,4-dimetoksifeniletel)amino)-2,4-dietilefir-1-metil-3-fenil-siklogeksen-4-ol-1 kabi maqsadli mahsulotlar olishga imkoniyat yaratilishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Karbonil birikmalarning gomoveratrilamin bilan uch komponentli reaksiyalari asosida yenaminonlar sintezi bo'yicha olingan natijalar asosida:

5-N-((3,4-dimetoksifeniletel)amino)-2,4-diasetil-1-metil-2-brom-3-oksi-4-metoksifenil-siklogeksen-4-ol-1 №VA-FA-F-6-009 “Tabiiy birikmalar va ularning sintetik hosilalarining sitotoksik, bakteriya va zamburug'larga qarshi hamda antioksidant faolliklari” mavzusidagi amaliy loyihadagi ilmiy obyekt sifatida foydalanilgan (O'zR Fanlar akademiyasining 2024 yil 26 noyabrdagi 4/1255-2625 son ma'lumotnomasi). Natijada, ushbu modda fibroblastlarga nisbatan kam toksiklikka ega bo'lgan, bachadon bo'yni (HeLa) va qizil o'ngach saratoni (HEp-2) hujayralariga nisbatan ingibitorlovchi faollikka ega yangi dori vositalari qatorini kengaytirish imkonini bergan;

sintez qilingan N-(3,4-dimetoksifeniletel)-1-(3-nitrofenil)metanimin va 5-N-(3,4-dimetoksifeniletel)amino)-2,4-dietilefir-1-metil-3-fenil-siklogeksen-4-ol-lar “Samarkand-England Eco-Medical” MChJ shaklidagi QKda suv tarkibidagi *Escherchia coli* (gramm (-) bakteriyasi)ni ingibirlashda amaliyotga joriy etilgan (“Samarkand-England Eco-Medical” MChJ QK ning 2024 yil 13 iyundagi 01-397 son ma'lumotnomasi). Natijada, korxonada ishlatiladigan texnik suv tarkibidagi

zararli mikroorganizmlar miqdorini kamaytirish va suvning tozalik darajasini oshirish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta, jumladan 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 5 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari chop etish uchun tavsiya etilgan 3 ta ilmiy maqola respublika, 2 ta maqola xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiya tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 109 betni tashkil etadi.


## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Yenaminonlarning umumiy tavsifi va biologik faolligi bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar”** deb nomlangan birinchi bobida mavzu bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarning natijalari, xorijiy va mahalliy adabiyotlar tahlili yoritilgan. Shuningdek, ma'lumotlar umumlashtirilgan va ilmiy-tahliliy xulosalar chiqarilgan hamda ilmiy adabiyotlardagi ma'lumotlardan kelib chiqqan holda dissertatsiya ishining maqsadi, vazifalari, dolzarbligi belgilab berilgan.

Dissertatsiyaning **“Yenaminon hosilalarining sintezi va ahamiyati”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot natijalari keltirilgan.


Turli fragmentlar bilan olingan halqali yenaminon birikmalari nozik organik sintez nuqtai nazaridan alohida qiziqish uyg'otadi, ular PASS (Prediction of Activity Spectra for Substances) dasturi ma'lumotlari bo'yicha yuqori ehtimollik bilan CYP2H sitoxrom geni substrati hisoblanadi, shuningdek, antiaritmik xususiyatlarga ega, oshqozonda ishlab chiqariladigan kislota miqdorini ingibirlovchi, ekzemaga qarshi faollikni namoyon qiladi. Shuningdek, tadqiqot natijasida olingan uch komponentli birikmalar Nifedipin-Procardia (1-rasm) nomi bilan sotuvda mavjud bo'lgan dori preparatining analogi hisoblanadi.



1-rasm. Nifedipin-Procardia preparati strukturasi

Ushbu tadqiqot ishi uchun asetosirka efirining gomoveratrilamin va aromatik aldegidlar bilan Mannix reaksiyasi sharoitida kondensatsiya va karbosikllanish reaksiyalari tadqiq qilindi.

Quyida olib borilgan yenaminon hosilalarining sintezi oraliq birikmalarni ajratmasdan bir reaktorli sharoitda amalga oshirilishi bilan ahamiyatlidir.



Dastlabki uch komponentli sintezlar gomoveratrilamin (**1**), atsetosirka efiri (**2**) va turli aldegidlar (**3 a-k**) ishtirokida xona haroratida 3-10 kun davomida etanol eritmasida amin (**1**) ning to'liq konversiyasiga qadar olib borildi (YUQX nazorati, benzol:metanol 6:1, 4:1 sistemalarida).

Olingan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, asetosirka efirining 2 ekvivalenti 1 ekvivalent amin va aldegid bilan ta'sirlashuv mahsulotlarining asosiy qismi yuqori unumlar (umumiy unum 56-85%) bilan hosil bo'lishiga olib keladi.

Uch komponentli sintez ko'p bosqichli kondensatsiya sharoitida davom etadi. Bunda atsetosirka efirining ikkita elektrofil markazga egaligi va CH- kislota ekanligini ham hisobga olish kerak. Shuning uchun, mahsulotlar ichida maqsadli (**4-13**) yenaminonlar va chiziqli tuzilishga ega bo'lgan ikki komponentli birikmalar (**20,21**) bilan birga, halqali tuzilishga ega bo'lgan (**14-19**) birikmalar ham olindi.

Quyidagi 1-Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, almashingan benzaldegid hosilalarining tuzilishi ham reaksiya yo'nalishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Para- va orto- holatdagi barcha birinchi turdagi o'rinbosarlar karbokationdagi zaryad taqchilligini kamaytirishiga qaramay, uch komponentli birikmalarning (**4-13**) unumi 54-85% ni tashkil qiladi. Ikkinchi tur o'rinbosarlari esa karbonil guruhining elektrofilik xususiyatini oshirishi imin hosil bo'lish bosqichi va

kondensatsiya reaksiyasi sekinlashishiga va maqsadli mahsulot unumining pasayishiga olib keldi.

Boshqa holatlarda, nitro va orto-gidroksil guruhining mavjudligi reaksiya yoʻnalishini iminlar (20,21) va siklogeksan(en) hosilalari (14-19) hosil boʻlishi tomon yoʻnaltiradi.

### 1-Jadval


#### Sintez qilingan (4-21) mahsulotlarning fizik-kimyoviy kattaliklari va hosil boʻlish unumlari


Dastlabki aldegid, R		Birikma	R <sub>f</sub>	Vaqt, sutka	Brutto formula	Unum	T <sub>suy</sub> , °C
№	R						
3a	H	4	0.58	7	C <sub>29</sub> H <sub>37</sub> NO <sub>7</sub>	79	145-147
		14	0.47		C <sub>19</sub> H <sub>24</sub> O <sub>6</sub>	9	136-138
3b	3-OCH <sub>3</sub> , 4-OCH <sub>3</sub>	5	0.61	7	C <sub>31</sub> H <sub>41</sub> NO <sub>9</sub>	74	109-112
		15	0.44		C <sub>21</sub> H <sub>30</sub> O <sub>8</sub>	10	141-144
3d	<i>m</i> -NO <sub>2</sub>	6	0.62	3	C <sub>29</sub> H <sub>36</sub> N <sub>2</sub> O <sub>9</sub>	25	138-141
		16	0.5		C <sub>19</sub> H <sub>23</sub> NO <sub>8</sub>	54	148-149
		19	0.76		C <sub>19</sub> H <sub>21</sub> NO <sub>7</sub>	7	96-98
3e	<i>p</i> -NO <sub>2</sub>	7	0.63	5	C <sub>29</sub> H <sub>36</sub> N <sub>2</sub> O <sub>9</sub>	41	171-173
		17	0.59		C <sub>19</sub> H <sub>23</sub> NO <sub>8</sub>	22	138-141
		20	0.73		C <sub>17</sub> H <sub>18</sub> N <sub>2</sub> O <sub>4</sub>	27	124-128
3f	<i>o</i> -OH	8	0.64	7	C <sub>29</sub> H <sub>37</sub> NO <sub>8</sub>	56	193-195
		18	0.52		C <sub>19</sub> H <sub>24</sub> O <sub>7</sub>	13	181-183
		21	0.7		C <sub>17</sub> H <sub>19</sub> NO <sub>3</sub>	18	128-131
3g	<i>p</i> - N(CH <sub>3</sub> )	9	0.73	10	C <sub>31</sub> H <sub>42</sub> N <sub>2</sub> O <sub>7</sub>	82	moysimon
3h	<i>p</i> -OCH <sub>3</sub>	10	0.6	10	C <sub>30</sub> H <sub>39</sub> NO <sub>8</sub>	85	moysimon
3i	<i>p</i> -OH	11	0.81	10	C <sub>29</sub> H <sub>37</sub> NO <sub>8</sub>	79	168-171
3j	<i>o</i> -OCH <sub>3</sub>	12	0.8	10	C <sub>27</sub> H <sub>32</sub> NO <sub>5</sub>	80	155-157
3k	<i>m</i> -OH <i>p</i> -OCH <sub>3</sub>	13	0.76	10	C <sub>30</sub> H <sub>39</sub> NO <sub>9</sub>	77	moysimon

Olingan moddalarning tuzilishi <sup>1</sup>H va <sup>13</sup>C YaMR usullari bilan aniqlandi. Signallarni belgilashda gomo- va ikki oʻlchamli YaMR-spektrlari (COSY, NOESY, HMQC va DEPT) maʼlumotlari asosida amalga oshirildi. Mahsulotlarning YaMR spektrlarida etoksi guruhlardagi metil guruhlariga mos keladigan proton signallari 0,67-1,22 m.u. (4-C(O)O-CH<sub>2</sub>-CH<sub>3</sub>) va 0,89-1,36 m.u. (2-C(O)O-CH<sub>2</sub>-CH<sub>3</sub>) sohasida triplet shaklida koʻringan. Siklogeksen halqasining H-2 va H-3 metin protonlari turli spin-spin taʼsirlashish konstantalari (SSTK, *J*) bilan dubletlar sifatida rezonanslashgan. 4-7 birikmalarida SSTK H-2 va H-3 protonlari oʻrtasida 11.0 Gs va 12.3 Gs qiymatlarni tashkil qiladi. Bu shuni koʻrsatadiki, H-2 va H-3 protonlari siklogeksan(en) halqasiga nisbatan aksial holatni egallagan. Metilen guruhi H-6 protonlari 1.88 m.u. dan 2.75 m.u. gacha boʻlgan sohada dublet koʻrinishida aniqlangan (2-Jadval).

(4-12) birikmalarning  $^1\text{H}$  YaMR-spektr tavsifi ( $\text{CDCl}_3$ ,  $\delta$ , m.u.,  $J/\text{MGs}$ )

C atomi	4-modda	5-modda	6-modda	7-modda	8-modda
<b>Asetosirka efiri qismi</b>					
<b>CH<sub>3</sub>-1</b>	1.24 (3H, s)	1.25 (3H, s)	1.36 (3H, s)	1.19 (3H, s)	1.77 (3H, s)
<b>1-OH</b>	3.39 (1H, keng s.)	3.35 (1H, keng s.)	3.27 (1H, keng s.)	3.92 (1H, keng.s.)	6.69 (1H, keng s.)
<b>2</b>	2.39 (1H, d, $J=11.0$ )	2.39 (1H, d, $J=11.0$ )	2.65 (1H, d, $J=12.5$ )	2.56 (1H, d, $J=11.2$ )	3.53 (1H, d, $J=6.1$ )
<b>2-Et-CH<sub>2</sub></b>	3.99 (2H, m)	4.02 (2H, m)	3.88 (2H, kv, $J=7.1$ )	3.80 (1H, m), 3.87 (1H, m.)	4.26 (2H, m)
<b>2-Et-CH<sub>3</sub></b>	1.00 (3H, t, $J=7.1$ )	1.05 (3H, t, $J=7.1$ )	1.07 (3H, t, $J=7.1$ )	0.89 (3H, t, $J=7.1$ )	1.30 (3H, t, $J=7.1$ )
<b>3</b>	4.09 (1H, dd, $J=11.0, 1.3$ )	4.05 (1H, m.)	4.15 (1H, d, $J=12.3$ )	3.03 (H, d, $J=12.2$ )	3.88 (1H, d, $J=3.5$ )
<b>4-Et-CH<sub>2</sub></b>	3.67 (1H, dk, $J=10.6, 7.1$ ), 3.77 (1H, dk, $J=10.6, 7.0$ )	3.71 (1H, dk, $J=10.7, 7.1$ ), 3.78 (1H, dk, $J=10.7, 7.1$ )	3.87 (2H, kv, $J=7.0$ )	3.69-3.71(2H, m)	4.16 (2H, m)
<b>4-Et-CH<sub>3</sub></b>	0.67 (3H, t, $J=7.1$ )	0.75 (3H, t, $J=7.1$ )	0.81 (3H, t, $J=7.1$ )	0.71 (3H, t, $J=7.1$ )	1.22 (3H, t, $J=7.1$ )
<b>6</b>	2.24 (1H, m.), 2.61 (1H, d, $J=17.4$ ),	2.26 (1H, dd, $J=17.4, 1.7$ ), 2.61 (1H, d, $J=17.4$ )	2.74 (1H, d, $J=14.3$ ), 3.09 (1H, d, $J=12.2$ )	2.23 (1H, d, $J=6.2$ ), 2.41 (1H, dd, $J=1.6, 5.6$ )	1.88 (1H, d, $J=2.2$ ), 2.04 (1H, d, $J=2.2$ )







**2-Rasm. 5-N-((3,4-dimetoksifeniletıl)amıno)-2,4-dıetılefır-1-metıl-3-fenıl-sıklogeksen-4-ol-1 (4) ńıń  $^1\text{H}$  va COSY YaMR-spektrı.**

**4-21** bırikmalarıńıń hosıl bo‘lıshı, bır vaqtńıń o‘zıda bır necha yo‘nalıshdagi reaksıyalar natıjasıda hosıl bo‘lısh ehtımolı mavjud.

Adabıyotlar tahlılı va tajrıba ma‘lumotlarıga asoslanıb reaksıyanıń borısh mexanzımını quyıdagıcha ızohlash mumkıń. Etanol muhıtıda amalga oshırılğan reaksıyada erıtuvchı proton manbayı sıfatıda ham ishtırok etadı va asetosırka efırıńıń faol yenol shaklıńı hosıl qıladı. Reaksıyanıń dastlabkı bosqıchıda nukleofıl tabıatga ega amıńıń **1** aldegıd **3** karbonıl guruhi elektrofıl uglerodıga ta’sırıdan karbınolamın hosıl bo‘ladı va unıń o‘zıdan suvńı ajratıshı hesabıga kuchlı elektrofıl bırikma imın tuzı **I** (Shıff asosı) hosıl bo‘ladı. Paralell murakkab reaksıyada aldegıd **3** ńıń elektrofıl karbonıl uglerodı asetosırka efırıńıń reaksıon faol yenol shaklı bilan o‘zaro ta’sırlashıshı bilan boradıgan qo‘shımcha reaksıya ham amalga oshadı. Ichkı molekulyar Mannıx reaksıyası sharoıtıda ikkı molekula dıkarbonıl bırikma tutğan oralıq mahsulotdagi bıřıńchı dıkarbonıl bırikma yenol shaklı metılen guruhi nukleofıl sıfatıda ikkıńchı dıkarbonıl bırikma elektrofıl markazıga hujumıdan asosıy sınton **II** hosıl bo‘ladı. Sıntezńıń so‘ńgı bosqıchıda ichkı halqalanısh mahsulotı sınton **II** ekzosıkklık kısılorodı bog‘langan elektrofıl markazga nukleofıl (amın) ńıń hujumıdan maqsadlı yenamınon **III** hosıl bo‘ladı. Olıngan mahsulotlar tuzılıshı ichkı molekulyar Mannıx reaksıyasıdan farqlı ravıshda amın komponentıńıń asosıy halqanı hosıl qılıshda ishtırok etmaganlıgıńı ko‘rsatadı. Sıntezńıń yakunıy mahsulotı YaMR-spektrları tahlılı ham unıń karbosıkklık tuzılıshıga ega ekanlıgıńı ısbotlaydı.




Olingan mahsulotning individlash va tozalik darajasini yuqori bo'lishini ta'minlash uchun ustunli xromatografiyadan foydalanildi. Kondensirlangan **4-6** hosilalar, normal sharoitda barqaror bo'lishiga qaramay, benzin-etilasetat tizimida (100:0-0:100) silikagelda xromatografiya usulida ajratilganda, amin komponentini yo'qotib, keto shaklining yenol shaklidan sezilarli ustunligi bilan (**14a,b-16a,b**) keto-yenol shaklda mavjud bo'lgan **14-16** birikmalariga aylanadi. Ushbu jarayonda, amin bog'ining oksidlanishi natijasida siklogeksan(en) halqasining birinchi holatdagi uglerod atomiga karbonil kislorodining kiritilishi ro'y bergan.




$^1H$  YaMR-spektrlaridan ma'lum bo'ldiki, **14-16** birikmalari eritmada keto-yenol tautomerlari (**14a:14b-85%:15%**; **15a:15b-79%:21%**; **16a:16b-86%:14%**) holida mavjud bo'ladi.

**14-16** birikmalarining keto va yenol holatlarida siklogeksan va siklogeksen halqalarining protonlari o'zlarining SSTK dan aksial holatni egallaydi (siklogeksanon halqasi uchun  $J_{2,3}^3=12,6$  Gs,  $J_{3,4}^3=12,3$  va siklogeksen halqasi uchun  $J_{3,4}^3=11,0$ ). Yuqoridagi birikmalarning C-7 da metil guruhi ekvatorial holatni egallagan. **19**-mahsulotda tautomerlanish holati aniqlanmadi, bu qo'sh bog'ning karbonil guruhi  $\pi$ -elektronlari bilan delokallanishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

**14** birikmaning tuzilishi rentgen tuzilish tahlili ma'lumotlari bilan ham tasdiqlangan (3-rasm). To'rtta assimetrik markazni o'z ichiga olgan **14** hosila rasemat hisoblanadi. Rentgen nurlari diffraksiyasi analiz ma'lumotlariga ko'ra, **14** moddaning siklogeksan halqasi H-2,3,4 vodorod atomlari 2D YaMR ( $\text{CDCl}_3$  eritmasida) ma'lumotlariga to'liq mos holda, siklogeksan halqasiga nisbatan  $\alpha$ -aksial holatni, 5- $\text{CH}_3$ - $\alpha$ -ekvatorial holatni va 5-OH  $\beta$ -aksial holatni egallaydi.




**3-rasm. 14-birikmaning kristaldagi tuzilishi**



#### **4-Rasm. Diethyl 4-gidroksi-4-metil-6-okso-2-fenilsiklogeksan-1,3-dikarboksilat $^1\text{H}$ va 2D YaMR-spektri (14).**

Uch komponentli reaksiyalarning hosil bo'lish unumini taqqoslash uchun, ikki bosqichli reaksiyalar olib borildi. **1** va **3a-f** moddalar ishtirokida oraliq mahsulot sifatida iminlar (**20-24**) hosil bo'lishi orqali maqsadli uch komponentli yanaminon birikmalari sintezini amalga oshirildi.

**4-18** birikmalarni olishning ko'p bosqichli B usul bo'yicha, amin **1** va aldegidlarning **3** o'zaro ta'sirlashuvidan olingan iminlar yordamida amalga oshirildi. Ushbu reaksiyalarda iminlarning oraliq mahsulotlar sifatidagi faoliyatini aniqlash uchun, amin va aldegidlar (benzaldegid **3a**, *m*-nitrobenzaldegid **3b**, *p*-nitrobenzaldegid **3d**, salitsil aldegid **3f**) o'rtasida benzol muhitida suvni azeotrop haydash usuli orqali kondensatsiya reaksiyasi olib borildi.



Olingan iminlarning xona haroratida 2 mmol asetosirka efiri bilan etanolda o‘zaro ta’sirlashuvidan kutilgan uchkomponentli (**4-8**) mahsulotlar va mos holdagi yenonlar (**14-18**)lar yuqori unum bilan olindi (3-Jadval).


### 3-Jadval

#### 4-18 mahsulotlarning 1- va 2-usul bo‘yicha hosil bo‘lish unumi va vaqti

Dastlabki aldegid, R		Reaksiya mahsuloti	1-usul		2-usul	
№	R		Vaqt, sutka	Unum	Vaqt, sutka	Unum
3a	H	4	7	67	4	55
		14		5		25
3b	3-OCH <sub>3</sub> , 4-OCH <sub>3</sub>	5	7	71	4	47
		15		8		23
3d	<i>m</i> -NO <sub>2</sub>	6	3	17	2	32
		16		51		20
3e	<i>p</i> -NO <sub>2</sub>	7	5	40	3	41
		17		21		25
3f	<i>o</i> -OH	8	7	54	3	38
		18		23		24

Mahsulot unumi benzol halqasidagi o‘rinbosarlarning turiga bog‘liq bo‘ldi. Xuddi bir bosqichli usulda kuzatilgani kabi, birinchi turdagi o‘rinbosarlar yenaminonlarning unumini oshirdi va nitroguruhning mavjudligi esa siklogeksan(en) tipidagi yangi mahsulotlarning shakllanishiga yordam berdi. **4, 5, 8** birikmalar yuqori unum bilan “one-pot” reaksiyalarda olingan. Ikki bosqichli usulning yagona afzalligi - reaksiya vaqtini qisqaligi bo‘ldi.

Yenaminonlarning atsetilaseton (**2a**) ishtirokidagi sintezi organik kimyoda keng qo‘llaniladigan sintez yo‘llaridan biridir. 5-N-((3,4-dimetoksifenilet)amino)-2,4-diatsetil-1-metil-3-fenilsiklogeksen-4-ol-1 yenaminon hosilalarini sintez qilish uchun boshlang‘ich moddalar sifatida gomoveratrilamin (**1**, 1 mol), atsetilaseton (**2a**, 2 mol) va benzaldegidlar (1 mol: benzaldegid **3a**, *m*-nitrobenzaldegid **3d**, *p*-nitrobenzaldegid **3e**, *p*-gidroksibenzaldegid **3i**) tanlandi. Reaksiyalar 7 kun davomida etil spirtida xona haroratida gomoveratrilaminning to‘liq konversiyasiga (YuQX nazorati, benzol:metanol, 6:1; 4:1) qadar amalga oshirildi.




**3a,d,e** aldegidlar bilan olib borilgan reaksiyalarda maqsadli uch komponentli mahsulotlar olishga erishilmadi. Kutilgan mahsulot o'rniga 31-56% unum bilan asetosirka efiri ishtirokidagi reaksiyalarda uchramagan chiziqli yenamini **25** hosil bo'ldi (4-Jadval). Ma'lum bo'lishicha, asetilaseton ishtirokidagi uch komponentli reaksiyalarda maqsadli mahsulot **26** olishga faqat *p*-gidroksibenzaldegid (75% unum) bilan erishildi.

#### 4-Jadval

#### 5-N-((3,4-dimetoksifenilet)amino)-2,4-diasetil-1-metil-3-fenil-siklogeksen-4-ol-1larning fizikaviy kattaliklari va hosil bo'lish unumlari

Dastlabki aldegid		Birikma	Brutto formulasi	R <sub>f</sub>	Vaqt, sutka	Unum, %	T. suy, °C
№	R						
<b>3a</b>	H	<b>25</b>	C <sub>15</sub> H <sub>21</sub> NO <sub>3</sub>	0.55	7	31	40-42
		<b>22</b>	C <sub>17</sub> H <sub>19</sub> NO <sub>2</sub>	0.62		34	110-112
<b>3d</b>	<i>m</i> -NO <sub>2</sub>	<b>25</b>	C <sub>15</sub> H <sub>21</sub> NO <sub>3</sub>	0.55	7	26	40-42
		<b>24</b>	C <sub>17</sub> H <sub>18</sub> N <sub>2</sub> O <sub>4</sub>	0.71		54	129-130
<b>3e</b>	<i>p</i> -NO <sub>2</sub>	<b>25</b>	C <sub>15</sub> H <sub>21</sub> NO <sub>3</sub>	0.55	7	48	40-42
		<b>20</b>	C <sub>17</sub> H <sub>18</sub> N <sub>2</sub> O <sub>4</sub>	0.67		21	103-105
<b>3i</b>	<i>p</i> -OH	<b>26</b>	C <sub>27</sub> H <sub>33</sub> NO <sub>6</sub>	0.7	7	75	175-177


Sintezlangan **25-30** birikmalarining tuzilishi IQ, <sup>1</sup>H va <sup>13</sup>C YaMR va Mass spektrometriyasi bilan o'rganildi. **25** birikmaning <sup>1</sup>H YaMR spektri β-feniletilamin fragmenti signallarini va qo'shimcha ravishda ikkita metil guruhiga tegishli δ 1,71 va 1,91 da signallarni va 4,90 m.u. da (1H, s, H-10) metin protoni signallarini o'z ichiga oladi (5-Rasm).



### 5-Rasm. 25 birikmaning $^1\text{H}$ YaMR-spektri

Shuningdek, **26** birikmaning IQ-spektrlarida N-H ( $3383\text{ cm}^{-1}$ ), karbonil guruhlari ( $1678\text{ cm}^{-1}$ ) va aromatik halqaning ( $1485\text{ cm}^{-1}$ ) yutilish zonalari kuzatildi.

Quyidagi sxemada dikarbonil birikma sifatida asetilseton ishtirokidagi sintezlar mexanizmi keltirilgan.



Ushbu reaksiyalarda ham reaksiyaning bir vaqtning o'zida bir necha yo'nalishlarda sodir bo'lishini kuzatish mumkin. Reaksiyaning dastlabki bosqichida nukleofil tabiatli gomoveratrilaminning **1** aldegid **3** bilan etanol

muhitida o'zaro ta'sirlashuvidan imin **I** hosil bo'ladi. Bir vaqtning o'zida amin **1** molekula asetilaseton **3** bilan reaksiyaga kirishib yenamin **II** molekulasini hosil qiladi. Hosil bo'lgan yenamin **II** ning aromatik aldegid elektrofil markaziga nukleofil hujumi oraliq mahsulot **A** hosil bo'lishi bilan tugaydi. Oraliq **A** mahsulotning ikkinchi asetilaseton molekulasidagi harakatchan vodorodli metilen guruhi bilan ta'sirlashuvidan bir molekula suv yo'qotib, intermediat **B** ni hosil qiladi. Reaksiyaning dastlabki bosqichida hosil bo'lgan Shiff asosi **B** intermediat metil guruhidan protonni ajralishiga sabab bo'ladi. So'nggi bosqichda intermediat **B** ning ichki molekulyar karbosikllanishidan maqsadli yenaminon molekulasini hosil bo'ladi.

Aldegid molekulasiga brom atomining kiritilishi(**31**, **3m**, **3n**, **3o**) uch komponentli yenaminonlar **27-30** (5-jadval) hosil bo'lishini rag'batlantirdi. Tarkibida orto-gidroksil guruhi (**3p**) va metilendioksi guruhi (**3o**) mavjud bo'lgan aldegidlar bilan esa bir vaqtning o'zida gomoveratrilaminning ushbu aldegidlar va atsetilaseton (**2a**) bilan kondensatsiyalanish jarayoni tezlashdi. Bunday ikki yo'nalishdagi reaksiyalarning raqobati natijasida, mos holda biroz ustunlik **31** va **32** moddalarning hosil bo'lishi kuzatildi.**20,22,24**, **31** va **32** iminlarning tuzilishi <sup>1</sup>H YaMR-spektr ma'lumotlari asosida va (**3l**, **3m**, **3n**, **3o**, **3p**, **3q**) aldegidlarning gomoveratrilamin bilan olib borilgan teskari sintez xulosalari asosida isbotlandi.

#### 5-Jadval

#### 5-N-((3,4-dimetoksifenilet)amino)-2,4-diasetil-1-metil-bromfenil-siklogeksen-4-ol-1-yenaminon hosilalarining fizik-kimyoviy kattaliklari va hosil bo'lish unumlari

Dastlabki aldegid		Birikma	Brutto formulasi	Rf	Vaqt, soat	Unum, %	T. suy., °C
№	R						
<b>3l</b>	2-Br, 3-OH, 4-OCH <sub>3</sub>	<b>27</b>	C <sub>28</sub> H <sub>34</sub> BrNO <sub>7</sub>	0.68	23	68	209-210
<b>3m</b>	3-Br, 4-OH	<b>28</b>	C <sub>27</sub> H <sub>32</sub> BrNO <sub>6</sub>	0.75	24	87	201-203
<b>3n</b>	3-OCH <sub>3</sub> , 4-OH, 5-Br	<b>29</b>	C <sub>28</sub> H <sub>34</sub> BrNO <sub>7</sub>	0.8	24	71	moysimon
<b>3o</b>	3-OH, 4-OCH <sub>3</sub> , 6-Br	<b>30</b>	C <sub>28</sub> H <sub>34</sub> BrNO <sub>7</sub>	0.73	24	79	moysimon
<b>3p</b>	2-OH, 5-Br	<b>25</b>	C <sub>15</sub> H <sub>21</sub> NO <sub>3</sub>	0.55	48	31	40-42
		<b>31</b>	C <sub>17</sub> H <sub>18</sub> BrNO <sub>3</sub>	0.72		49	90-91
<b>3q</b>	3.4-O-CH <sub>2</sub> -O, 6-Br	<b>25</b>	C <sub>15</sub> H <sub>21</sub> NO <sub>3</sub>	0.55	48	37	40-42
		<b>32</b>	C <sub>18</sub> H <sub>18</sub> BrNO <sub>4</sub>	0.8		51	144-146

**26-30** birikmalarining spektral tahlili spektrda C=O(CH<sub>3</sub>) guruhiga tegishli signallar δ (1,73-1,75 m.u. va 1,97 - 1,98 m.u.), H-6 ga tegishli signallar esa δ (3,70-3,81 m.u., 3,78-3,86 m.u.) sohalarda aksial va ekvatorial holatlarda mavjudligi atsetilasetonning ikkita molekulasining sikllanishini isbotlaydi. Amin fragmentida H-α va H-β (2,78-2,79 m.u., 3,43-3,44 m.u.) va aromatik halqa protonlari uchun tegishli signallar, asosan, δ 6.68-6,74 m.u. sohasida dublet va dublet-dublet shaklida rezonanslashgan bo'lib, uch komponentli yenaminonlar hosil bo'lishini isbotlaydi.

O‘zR FA O‘MKI genetika va toksikologiya laboratoriyasi (prof. Sh.S. Azimova rahbarligida tadqiqot guruhi) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar davomida 4 ta birikmaning (**27, 28, 29, 30**) sitotoksikligi 4 xil (CCRF-CEM, HeLa, HEP-2, HBL-100) saraton hujayralariga nisbatan ta‘sirini tekshirildi, natijada ulardan **30** birikma HeLa karsinomasi (**93,8%**) va laringeal adenokarsinoma HEP-2 (**66,5%**) saraton hujayralariga nisbatan yuqori faollik va sog‘lom hujayralar – fibroblastlar va gepatotsidlarga nisbatan kam zaharli xossaga ega ekanligi aniqlangan. 1-Ar-yenaminon tuzilishi va ularning sitotoksik faolligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish natijasida, bu faollikning namoyon bo‘lishi uchun zaruriy shart - modda molekulasida NH guruhi va 2 ta etoksi-guruhlar, shuningdek, C-3 holatdagi aril halqasidagi gidroksil guruhi va orto-galogen atomi mavjudligi aniqlangan.

Dissertatsiyaning **III bobida** tajribaviy qism, foydalanilgan reaktivlar tavsifi berilgan, tadqiqod davomida bajarilgan sintez usullari, fizikaviy-kimyoviy tahlil natijalari keltirilgan.

## XULOSALAR

1. Ilk bora yenaminonlar sintezida gomoveratrilaminning atsetosirka efiri, atsetilaseton va aromatik aldegidlar asosida uch komponentli reaksiyalar tizimli o‘rganilgan va ularning borishiga ta‘sir etuvchi omillar (erituvchi, vaqt, harorat) aniqlandi.
2. Asetosirka efirining aromatik aldegidlar bilan noodatiy karbosikllanish reaksiyalari natijasida yenonlar va iminlar hosil bo‘lishi aniqlandi. Sintezlangan yenonlar va iminlarning tuzilishi YaMR, IQ va Mass spektrometriyasi usullari asosida tasdiqlandi. 32 ta birikma sintez qilingan bo‘lib ulardan 24 tasi yangi moddalar ekanligi isbotlangan.
3. Yenaminonlarni sintez qilishning maqbul sharoitlari aniqlangan (gomoveratrilamin : dikarbonil birikma : aromatik aldegid = 1:2:1, t=20°C, vaqt 3-7 sutka, unum 56-85%);
4. Yenaminonlarning biologik faolligi aniqlandi, unga ko‘ra HeLa epitelial karsinomasiga 93,8% va HEP-2 halqum adenokarsinomasiga 66,5% hujayralariga nisbatan sitotaksik faollikni namoyon etganligi qayt etildi.
5. 5-N-((3,4-dimetoksifenilet)amino)-2,4-diasetil-1-metil-2-brom-3-oksi-4-metoksifenil-siklogeksen-4-ol-1 “Tabiiy birikmalar va ularning sintetik hosilalarining sitotoksik, bakteriya va zamburug‘larga qarshi hamda antioksidant faolliklari” mavzusidagi amaliy loyihasida hamda N-(3,4-dimetoksifenilet)-1-(3-nitrofenil)metanimin va 5-N-(3,4-dimetoksifenilet)amino)-2,4-dietilefir-1-metil-3-fenil-siklogeksen-4-ol-lar in vitro sharoitda *Escherchia coli* (gramm (-) bakteriya)ga nisbatan antibakterial vosita sifatida amaliyotga joriy etilgan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc03/30.09.2020.К.82.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ЧИРЧИКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
ПЕДАГОГИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**САМАРКАНДКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**ХУДОЙБЕРДИЕВА АЗИЗА АБДУМАЖИТОВНА**

**СИНТЕЗ ЕНАМИНОВ НА ОСНОВЕ ТРЕХКОМПОНЕНТНЫХ  
РЕАКЦИЙ С УЧАСТИЕМ КАРБОНИЛЬНЫХ СОЕДИНЕНИЙ И  
ГОМОВЕРАТРИЛАМИНА**

**02.00.03 – Органическая химия**

**АФТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО  
ХИМИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Чирчик – 2025**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2023.4.PhD/K689.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета ([www.cspi.uz.ilmiy-kengash](http://www.cspi.uz.ilmiy-kengash)) и на Информационно-образовательном портале «Ziynet» по адресу ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

**Научный руководитель:** Саидов Абдусалом Шомуродович  
Доктор философии химических наук, доцент

**Официальные оппоненты:** Абдушукуров Анвар Кабирович  
доктор химических наук, профессор

Вапоев Хуснитдин Мирзоевич  
доктор технических наук, профессор

**Ведущая организация:** Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами

Защита диссертации состоится «30» 04 2025 г. в 14<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета DSc.03/30.09.2020.K.82.02 по присуждению учёных степеней при Чирчикском государственном педагогическом университете. (Адрес: 111720, Ташкентская область, г. Чирчик, ул. Амира Темура, дом 104. Тел.: (+998) 70-716-68-05, факс: (0370) 716-68-11; e-mail: [tvchdpi\\_k.kengash@umail.uz](mailto:tvchdpi_k.kengash@umail.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Чирчикского государственного педагогического университета. Адрес: 111720, Ташкентская область, г. Чирчик, ул. Амира Темура, дом 104. Тел.: (+998) 70-716-68-05, факс: (0370) 716-68-11 (зарегистрирована за № 366).

Автореферат диссертации разослан «17» 04 2025 года.  
(реестр протокол рассылки № 24 от 17.04 2025 года).



**О.Э.Зиядуллаев**

Председатель научного совета по присуждению учёных степеней, д.х.н., профессор

**Г. К. Отамухамедова**

Ученый секретарь научного совета по присуждению учёных степеней, д.х.н.

**А.Г.Махсумов**

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению учёных степеней, д.х.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ аннотация диссертации доктора философии (PhD)**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В настоящее время возникновение и развитие заболеваний, представляющих серьезную угрозу здоровью человека, требует поиска новых биологически активных соединений. В результате производство органических веществ и материалов, пользующихся высоким спросом, с каждым годом увеличивается, что обуславливает необходимость получения нового поколения органических веществ на основе тонкого органического синтеза и всестороннего изучения областей их применения. В частности, актуальным является поиск новых методов получения высокоактивных производных енаминона, исследование их физико-химических свойств и определение сфер их целевого применения. Особенно важное значение имеет использование енаминонов в качестве высококачественных препаратов в медицине, фармакологии, биотехнологии, нефтехимии и химико-технологической промышленности.

В мире проводятся широкомасштабные исследования по определению альтернативных методов одностадийного синтеза цитотоксически активных соединений на основе новых енаминоновых соединений, изучению влияния различных факторов на ход процессов и выход продукта, применению новых каталитических систем, внедрению производственных технологий, изучению их физико-химических, фармакологических и биологических свойств, определению состава и структуры. В этой связи особое внимание уделяется определению структуры потенциально активных гетероциклических соединений, в частности, продуктов, образованных производными енаминона с различными соединениями, целенаправленному синтезу перспективных веществ и созданию на их основе эффективных биологически активных препаратов.

В нашей республике проводится широкомасштабная работа по организации научных исследований в направлении развития производства отечественной продукции и обеспечения внутреннего рынка качественными товарами. В связи с этим ведется ряд исследований по разработке альтернативных методов получения енаминонов и их различных производных, а также их внедрению в практику, и достигаются определенные результаты. В Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы определены важные задачи, направленные на «продолжение промышленной политики, обеспечивающей стабильность национальной экономики и увеличение доли промышленности в валовом внутреннем продукте, с целью увеличения объема производства продукции в 1,4 раза»<sup>1</sup>. В связи с этим, научно-практические исследования, направленные на поиск методов синтеза енаминоновых соединений на основе аминов и карбонильных соединений в селективных каталитических системах, их идентификацию и создание на их основе эффективных биологически активных веществ, имеют важное практическое значение.

---

<sup>1</sup> Постановление Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года ПП-60 «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы».

